

KITOB ICHIDAGI BIBLIOGRAFIYALAR

Matmuradova Malika Isayevna,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Kutubxona-axborot faoliyati” kafedrası

katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir, yozuvchi va adabiyotshunoslarning hayoti, ilmiy-ijodiy faoliyati oid nashrlarda, ma'lum bir shaxsning zamondoshlari xotirasida yozilgan kitoblarida, aynan shu shaxsni asarlarining biobibliografiyasi berilganligi, ularning adabiyotga qo'shgan munosib hissasi aks ettirilganli haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: kitob ichi, kitob oxirida, shoir, yozuvchi, adabiyotshunos, bibliografik ro'yxat, biobibliografiya, yordamchi, kitobxonlik.

Abstract: This article provides information about the fact that in publications about the life, scientific and creative activities of poets, writers and literary critics, in books written in memory of contemporaries of a certain person, a biobibliography of the works of this person is given, and their worthy contribution to literature is reflected.

Keywords: *inside the book, at the end of the book, poet, writer, literary critic, bibliographical list, biobibliography, assistant, reading.*

Adabiy bibliografiya uchun maxsus bo'lmagan kitob ichida va kitob oxirida beriladigan bibliografik axborotlarni ishlab chiqish va tarqatish yo'li ham mavjud. Adabiy bibliografiyada bu yo'ldan keng foydalaniladi. Bunga sabab badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikka oid nashrlarning xilma - xilligidir.

Kitob ichida va oxirida beriladigan bibliografik materiallarning afzalliga shundaki, ular anik kitobxonlik doirasiga egadir. Bunday manbalarda aynan biron janr yoki biron bir shaxs haqidagi bibliografik axborotlar, yordamchi xarakterga ega ekanligi, yordamchi apparati bilan ta'minlangani, ko'pincha bibliografiyalash

madaniyati ham yuqori darajada bo'lmaydi (ya'ni tavsifda, sistemalashtirish hamda xarakteristiklashda kamchiliklar mavjud bo'ladi).

O'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligida ham bir necha nashrlar chop etilgan bo'lib, ularda yuqoridagi aytilgan bibliografik material o'ziga xos xususiyat bilan berilib borilgan. Jumladan, O. Sharafiddinovning "Alisher Navoiy zamoni, hayoti, ijodiyoti va o'limi" (1939) kitobida adabiyotlar uch bo'limda berilgan:

1. A. Navoiyning asarlari 32 nomda. 2. A. Navoiyning turmush xronikasi 12 nomda. 3. A. Navoiy haqida eng muxim adabiyotlar 13 nomda berilgan, 1498, 1323, 1487, 1529, 1520 yillardagi manbalar ham berilgan. Materiallar xronologik tartibda joylashtirilgan. Jami 57 nomda adabiyot berilgan.

N. Mallayevning "Genial shoir va mutafakkir" (1968) kitobida Navoiy hayoti va faoliyatining muhim sanalari, Navoiy yaratgan asarlari ro'yxati va u haqida yaratilgan 110 ta ilmiy va ilmiy ommabop asarlar bibliografiyasi berilgan. Alisher Navoiy nomi bilan atalgan muhim joylar ro'yhati ham berilgan. Materiallarni joylashtirishda alifbo tartibi buzilgan, chiqqan yili, betlari ko'rsatilmagan, ayrimlarida nashrlar berilmagan.

M.M.Rasulning "Poeziya Mayakovskogo v Uzbekistane" (1965) risolasida Mayakovskiyning asarlari bibliografiyasi berilgan.

Bibliografiya 4 qismdan iborat: 1) Respublikamizda chop etilgan 44 nomda rus tilidagi; 2) 88 nomda o'zbek tilidagi nashrlari, 3) 90 nomda Respublikada chop etilgan maqolalari va ijodiy faoliyatiga doir bo'lgan materiallar. 4) Ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan va u tarjima qilgan asarlari haqida 73 nomda o'zbek tilidagi, jami 295 nomdagi materiallar berilgan.

Kitob ichida bundan tashqari yuzlab yozuvchi, shoir va adabiyotshunoslarning bibliografiyalari berilgan. Jumladan, A.Abrorovning "Adib va zamonaviylik" (yozuvchi SH.Rashidov hayoti va ijodi haqida ocherk) (1964) kitobida 124 nomda ; L.Kayumovning "Shoira Zulfiya: hayoti va ijodi haqida ocherk" (1965) asarida 42 nomda, M. Qodirovning "Nodira" (hayoti va ijodi) (1965) asarida 53 nomda, M.Zokirovning "Maksud Shayxzoda" (adabiy- tanqdiy ocherk) (1969) kitobida 126

nomda, Y. Sultonovning “Hamza : hayoti va ijodi haqida ocherk” (1973) kitobida 82 nomda, 3. Umarbekovning “Lermontov i uzbekskaya poeziya”(1973) risolasida 74 nomda. L. Qayumovning “Zulfiya” adabiy portreti (1975) kitobida 63 nomda, I. G’afurovning “O’rtoq shoir” (Maqsud Shayxzoda ijodiyoti) (1975) risolasida 91 nomda, X.Hasanovning “Ayol qalbining kuychisi” (1976) risolasida 109 nomda, SH.Otaboyevning “Mirzakalon Ismoilii: (adabiy portreti)” (1978) risolasida 29 nomda, “O’zbek filologiyasining aktual masalalari” ilmiy asarlar to’plamida №532 (1977) adabiyotshunos Subutoy Dolimov asarlarining 109 nomdagi to’lik bibliografiyasi, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Mukammal asarlar to’plami” ning 4 - tomida (1981) 324 nomda, B. Imomovning “Po’lat Mo’min” adabiy portreti (1980) kitobida 41 nomda, M. Hasanovning “Ayniy chamani” (1981) kitobida 207 nomda, M. A. Azimovning “Mirovozzreniye i tvorchestvo” (Literaturno - kriticheskiye vzglyady K. Yashena) (1982) kitobida 705 nomda, I. G’afurov, A. Ismoilovlarning “Dil ko’zgusidagi qiyofa” (Matyoqub Qo’shjonovning hayoti va ijodi) (1982) risolasida 165 nomda, “Abdulla Kaxxar i yego xudojestvenniy mir”(1989) risolasida 166 nomda, “Yoshlik” jurnalining 1990 yil №4 sonida Abdurauf Fitratning e’lon qilingan va nashrga tayyorlangan asarlarining 97 nomdagi ro’yxati berilgan. Otayorning “Quyosh ko’rgali keldim” esse (1991) kitobida Mirtemirning 53 nomda, CHO’lponning “Adabiyot nadir” (Adabiy- tanqidiy maqolalar, CHO’lpon haqida xotiralar) (1994) risolasida 62 nomda, “Adabiyot ilmining allomasi” (Akademik Vohid Abdulla zamondoshlari nigohida) risolasida(1997) 440 nomda, Karim Bahodirning “Jadid munaqqidi Vadud Mahmud” (2000) kitobida Vadud Maxmudning 46 nomda, A. Oripovning “Tanlangan asarlari” 4-jildida 632 nomdagi asarlari ro’yxati berilgan bo’lib, materiallar xronologik tartibda joylashtirilgan. E. Xudoyberdiyevning “Habib Sa’dulla” (2004) risolasida 345 nomda, “Mehrga yo’g’rilgan ijod” (Pirimqul Qodirov ijodi va adiblar va munaqqidlar talqinida) (2008) risolasida 388 nomda, hujjat aks ettirilgan.

Shuningdek, Erkin Samanlarning “Nazm nafasi” (2015) saylanmasida 20 nomdahujjat aks ettirilgan.

2018 yilda “O‘zbek adabiyotshunosligining ikki malikasi” nomi osida Ninel Vladimirova va Mashhura Sultonova zamondoshlari xotirasida kitobi nashr etilgan. Ushbu kitobda ikki adabiyotshunos olimalarning bibliografiyasi berilgan .

Kitobda o‘zbek adabiyotshunosligi ilmiga munosib hissa qo‘shgan fidoyi olimalar-O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori, professor Ninel Vasilyevna Vladimirova va Beruniy nomidagi Davlat mukofot sovrindori, filologiya fanlari nomzodi Mashhura Sultonovalar xotirasiga bag‘ishlangan maqolalar jamlangan. Kitobda ikkita olimani ijodkorlarning ma‘naviy-ruhiy qiyofasi mualliflar tomonidan ochib berilgan. Kitobning oxiriga ilova sifatida ilk bor olimalarning biobibliografiyalari ham taqdim etilmoqda.

Jumladan, Ninel Vasilyevna Vladimirovaning kitob va risolalari , vaqtli matbuotlarda chop etilgan 137 ta, uning rahbarligida himoya qilingan dissertatsiyalar,opponet ishlari, muharrirlik, to‘plovchilik, tarjimonlik, ilmiy faoliyatiga oid 90 ta hujjat aks ettirilgan. Materiallarning xronologik chegarasi 1951 yildan 2015 yilgacha bo‘lgan manbalar berilgan.

Shuningdek, Mashhura Sultonovaning kitob va risolalari, vaqtli matbuotlarda chop etilgan 115 ta, uning rahbarligida himoya qilingan dissertatsiyalar,opponet ishlari, muharrirlik, to‘plovchilik, tarjimonlik, ilmiy faoliyatiga oid 19 ta hujjat aks ettirilgan. Materiallarning xronologik chegarasi 1954 yildan 2013 yilgacha bo‘lgan manbalar berilgan.

Yuqoridagi ko‘rsatilgan manbalarning barchasida shu shaxsning asarlari va u haqidagi adabiyotlarning bibliografiyasi berilgan. Barcha manbalardagi bnbliografik tafsiflarda kamchiliklar bor, nashriyotlar ko‘rsatilmagan, kitoblarning betlari, oylar to‘liq yozilgan, jurnallardan olingan materiallarda betlar to‘liq ko‘rsatilgan, qisqartirilgan shakli berilmagan. Shuningdek, bibliografiyalar yordamchi apparatlar bilan ta‘minlanmagan.

Respublikamizda qator yozuvchi, shoir, adabiyotshunos olimlarimizga bag'ishlab bibliografiyalar tuzilgan. Ammo kitob ichidagi bibliografiyalar murakkab tuzilishga ega emas, ular shu yozuvchi, shoir yoki adabiyotshunosning asarlarini topishda imkon qadar malumot olishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Библиографияшунослик: дарслик / И.Ж.Юлдошев, Т. Байтураев, Ғ. Нарзуллаев, Ҳ. Маматраимова. –Тошкент, 2022.–236 б.
- 2.Mahmudov, M.X. Umumiy bibliografiya: o'quv qo'llanma / M.X.Mahmudov, G.Ziyodullayeva.–Toshkent, Aloqachi,2020. –200 b
3. Матмуродова М.Бадий адабиётлар библиографияси: ўқув қўлланма/ М. Матмуродова.–Тошкент : А.Қодирий номидаги Тош. ДМИ босмахона- си,2008.– 58 б.
4. Меҳрга йўғрилган ижод: Пиримқул Қодиров ижоди адиблар ва мунаққидлар талқинида / тўплаб, нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев ; масъул муҳаррир А.Расулов; таҳрир ҳайъати А.Орипов, У.Норматов,А.Расулов ва бошқ.–Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти,2008.–192 б.
- 5.Ўзбек адабиётшунослигининг икки маликаси : Нинель Владимиров ва Машҳура Султонова замондошлари хотирасида / тўплаб нашрга тайёрловчилар: М. Қўчқорова, Ш. Дониёрова; масъул муҳаррир Н.Каримов.–Тошкент: Ўзбекистон, 2018.–192 б.